

Shahlo MAKSUDOVA,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi talabasi,
Kamoliddin JAHONGIROV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasida o‘qituvchisi

TURIZMNI RAQAMLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA UNDA O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm sohasini raqamlashtirishning xorijiy tajribasi, xususan, Singapur misolida o‘rganilib, uni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida smart turizm tizimi, raqamli marketing, Big Data texnologiyalari, onlayn xizmatlar va davlat-xususiy sektor hamkorligining turizm rivojidadagi ahamiyati yoritilgan. O‘zbekiston turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular qatoriga smart turizm tizimini joriy etish, malakali kadrlar tayyorlash, Big Datadan foydalanish, hamkorlikni kengaytirish hamda raqamli marketingni kuchaytirish kiradi. Mazkur takliflar turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: elektron viza tizimi, turizm portallari, onlayn bronlash, mobil ilovalar, raqamli navigatsiya tizimlari, virtual ekskursiya, sun‘iy intellekt, raqamli marketing, xususiy sektor.

Аннотация. В данной статье рассматривается зарубежный опыт цифровизации туристического сектора, в частности, на примере Сингапура, и анализируются возможности его применения в условиях Узбекистана. В ходе исследования подчеркивается важность интеллектуальной туристической системы, цифрового маркетинга, технологий больших данных, онлайн-сервисов и сотрудничества государственного и частного секторов в развитии туризма. Разработаны конкретные рекомендации по развитию туристического сектора Узбекистана, включая внедрение интеллектуальной туристической системы, подготовку квалифицированного персонала, использование больших данных, расширение сотрудничества и укрепление цифрового маркетинга. Эти предложения будут способствовать повышению конкурентоспособности туристического сектора и обеспечению его устойчивого развития.

Ключевые слова: электронная визовая система, туристические порталы, онлайн-бронирование, мобильные приложения, цифровые навигационные системы, виртуальные туры, искусственный интеллект, цифровой маркетинг, частный сектор.

Abstract. This article studies the foreign experience of digitizing the tourism sector, in particular, the example of Singapore, and analyzes the possibilities of its application in the conditions of Uzbekistan. During the study, the importance of the smart tourism system, digital marketing, Big Data technologies, online services, and public-private sector cooperation in the development of tourism was highlighted. Specific recommendations for the development of the tourism sector of Uzbekistan were developed, including the implementation of a smart tourism system, training qualified personnel, the use of Big Data, expanding cooperation, and strengthening digital marketing. These proposals will serve to increase the competitiveness of the tourism sector and ensure its sustainable development.

Keywords: electronic visa system, tourism portals, online booking, mobile applications, digital navigation systems, virtual tours, artificial intelligence, digital marketing, private sector.

Turizmni raqamlashtirish zamonaviy turizm sanoatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi global raqobat sharoitida davlatlar turizm sohasini rivojlantirish uchun innovatsion va raqamli texnologiyalarni keng joriy

etishga intilmoqda. Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, turizmni raqamlashtirish turizm sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlashda katta ahamiyatga ega²³⁶.

Xorijiy tajribani o'rganish va undan foydalanish O'zbekiston turizm sanoatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston yuqori turizm salohiyatiga ega davlatlardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda mintaqa turizm salohiyatidan samarali foydalanish, sohani rivojlantirish va raqamlashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, elektron viza tizimi, turizm portallari, onlayn bronlash tizimlari va turizmni targ'ib qilishga qaratilgan raqamli marketing loyihalarining joriy etilishi shular jumlasidandir. Ammo sohani rivojlantirish maqsadida islohotlar samaradorligini oshirish bilan birga, mazkur sohani rivojlantirishda yuqori natijalarga erishgan davlatlar tajribasini o'rganish hamda mintaqaga mos bo'lgan jihatlarini amaliyotga joriy etish ham hudud imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish bilan birga sohani rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlar natijadorligining yanada oshishiga zamin yaratadi.

Singapur har yili 15 milliondan 19 milliongacha sayyohni qabul qiladi. 2020 va 2021-yillardagi pasayishdan so'ng, kelganlar soni 2024-yilda 16,5 milliondan oshdi va bu pandemiyadan oldingi darajaga yaqinlashdi. 2019-yilda Singapur rekord darajadagi 19,12 million xalqaro sayyohni qabul qildi. 2020-yilda koronavirus tufayli Singapurga kelganlar soni 85,7 foizga kamayib, 2,74 million kishini tashkil etdi. 2021-yilda tashrif buyuruvchilar soni yanada kamayib, taxminan 330000 sayyohni tashkil etdi, bu 2020-yilga nisbatan 87,9% ga kam. 2022-yilda 6,64 million xalqaro sayyoh bilan tiklanish boshlandi. 2024-yilda Singapurga 16,52 million xalqaro sayyoh tashrif buyurdi. Bu 2023-yilga nisbatan 21,5% ga o'sishni anglatadi va 2019-yilda pandemiyadan oldingi eng yuqori ko'rsatkichdan atigi 13,6% past, bu davr kelganlar soni 19,12 millionga yetgan.

Singapur tajribasining birinchi muhim jihati – turizmni raqamlashtirish va smart turizm tizimini joriy etishdir. Singapurda turizm sohasida mobil ilovalar, raqamli navigatsiya tizimlari, virtual ekskursiyalar va sun'iy intellekt asosidagi axborot tizimlari keng qo'llaniladi. O'zbekistonda ham shunday texnologiyalarni joriy etish mumkin. Masalan, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlar va ziyorat maskanlarida turistlarga mobil ilovalar orqali obidalar va madaniy meros obyektlari haqida interaktiv ma'lumot taqdim etish mumkin. Bu esa sayohatni qiziqarli, interaktiv va qulay qiladi hamda turistlar tajribasini oshiradi²³⁷.

Ikkinchidan, Singapur tajribasidan foydalanish O'zbekistonda turizm marketingini raqamli platformalar orqali rivojlantirish imkonini beradi. Singapur ijtimoiy tarmoqlar, turizm portallari, mobil ilovalar va onlayn reklama vositalari orqali turistik salohiyatini global miqyosda targ'ib qiladi. O'zbekiston ham shunga o'xshash raqamli marketing strategiyalarini joriy etishi mumkin. Masalan, Instagram, Facebook, TikTok va YouTube kabi platformalarda vizual kontent, interaktiv videolar va virtual sayohatlar orqali mamlakatning tarixiy shaharlarini, ziyorat

²³⁶ Tuxliyev N., Maksudova Sh. Turizmni raqamlashtirish: monografiya. – T.: Ilm-Ziyo-Zakat. - 2024. – 67 b.

²³⁷ Maksudova Sh.B. Buxoro ziyorati. – T.: Lesson Press, 2023. – B. 26.

maskanlarini va tabiiy hududlarini keng auditoriyaga targ'ib qilish mumkin. Bu xorijiy turistlarning e'tiborini jalb qilish va mamlakatga kelish istagini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, Singapur tajribasi O'zbekiston turizm infratuzilmasini samarali boshqarish imkoniyatini ko'rsatadi. Smart turizm tizimi yordamida turistik hududlarda turistlar oqimi monitoring qilinadi, xizmatlar samaradorligi baholanadi va transport tizimi optimallashtiriladi.

To'rtinchidan, Singapur tajribasi O'zbekistonda turizm xizmatlarini avtomatlashtirish va innovatsion yechimlarni qo'llashga yordam beradi. Onlayn bronlash tizimlari, raqamli to'lov xizmatlari va elektron platformalar orqali turistlar mehmonxona, transport va ekskursiya xizmatlarini tez va qulay tarzda tanlash imkoniga ega bo'ladi. Bu esa turistlar uchun qulaylik yaratadi va turizm tashkilotlari xizmatlarini samarali boshqarishga imkon beradi.

Beshinchidan, Singapur tajribasi O'zbekistonda davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirishga turtki beradi. Singapurda turizmni rivojlantirishda davlat infratuzilma yaratadi, xususiy sektor esa innovatsion xizmatlar va texnologiyalarni joriy etadi. O'zbekistonda ham shunday hamkorlikni yo'lga qo'yish, xususiy turizm kompaniyalarini innovatsion yechimlar ishlab chiqishga jalb qilish orqali turizm xizmatlari sifatini oshirish mumkin.

Shuningdek, Singapur tajribasi ekologik barqarorlikni ta'minlash va turizm resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha muhim yo'nalishlarni ko'rsatadi. O'zbekiston ham turizmni rivojlantirishda barqarorlik prinsiplarini joriy etib, tarixiy va madaniy obidalarni muhofaza qilish, tabiiy hududlarni saqlash va turizm infratuzilmasini ekologik jihatdan toza usullarda rivojlantirish imkoniyatiga ega.

Turizm O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri sifatida e'tiborga loyiq. Mamlakat boy tarixiy, madaniy va tabiiy resurslarga ega bo'lib, ziyorat va ko'ngilochar turizm salohiyati yuqori²³⁸. Shu bilan birga, raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali turizmni rivojlantirish imkoniyati mavjud. Singapur va boshqa rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, turizmni raqamlashtirish xizmatlar sifatini oshirish, turistlar oqimini samarali boshqarish va turizm sohasida barqaror rivojlanishni ta'minlash imkonini beradi.

O'zbekiston turizmni raqamlashtirish jarayonida davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirishi, barqaror turizm tamoyillarini joriy etishi va malakali kadrlarni tayyorlashi lozim. Davlat infratuzilmani yaratish va qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratadi, xususiy sektor esa innovatsion yechimlarni ishlab chiqadi. Bu yondashuv turizm xizmatlari sifatini oshirish, turizm resurslaridan oqilona foydalanish va xizmatlar samaradorligini maksimal darajada oshirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, Singapur tajribasidan kelib chiqib O'zbekiston turizm sohasini raqamlashtirish strategiyasini ishlab chiqishi mamlakatning turizm salohiyatini yanada kengaytirish, xizmatlar sifatini raqamli asosda oshirish va turistlar oqimini samarali boshqarish imkonini beradi. O'zbekiston turizmini rivojlantirish maqsadida birinchi navbatda smart turizm tizimi joriy etish lozim. Bu

²³⁸ Negroponte N. Being digital. – New York: Alfred A. Knopf, 1995. – P. 24.

orqali turistlar oqimini monitoring qilish, xizmatlar sifatini nazorat qilish va infratuzilmani samarali boshqarish mumkin bo‘ladi. Ikkinchi malakali kadrlar tayyorlash kerak. Ularning raqamli ko‘nikmalarini oshirish orqali sohaning barqaror rivojlanishini ta’minlash zarur. Uchinchidan Big Data texnologiyasini joriy etish lozim. Bu esa turistlarning ehtiyojlarini tahlil qilish va shaxsiylashtirilgan xizmatlar ko‘rsatish imkonini kengaytirish imkonini beradi. To‘rtinchidan davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish zarur. Hamkorlikni rivojlantirish orqali innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Beshinchidan raqamli marketingni kuchaytirish lozim. Ijtimoiy tarmoqlar, virtual turlar va multimedia kontent orqali O‘zbekistonning turistik salohiyatini global miqyosda targ‘ib qilish zarur.

Raqamli texnologiyalar, smart turizm tizimi, innovatsion platformalar va raqamli marketing usullarini joriy etish orqali O‘zbekiston turizmi zamonaviy, raqobatbardosh va barqaror rivojlanadigan tizimga aylanishi mumkin. Shu bilan birga, bu jarayon iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xalqaro miqyosda O‘zbekistonning obro‘sini mustahkamlash va turizm sohasida uzoq muddatli rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Maftuna ASHUROVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
“Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi stajyor o‘qituvchisi,
Mohira OLIMOVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

SURXONDARYO VILOYATINING ZIYORAT TURIZM SALOHIYATI VA UNDAN FOYDALANISH YO‘NALISHLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatining ziyorat turizmi salohiyati, hududdagi muqaddas qadamjolar va tarixiy obidalar tahlil qilingan. Xususan, Hakim At-Termiziy majmuasi va Sulton Saodat majmuasi kabi maskanlarning diniy va madaniy ahamiyati yoritilgan. Maqolada ziyorat turizmini rivojlantirish yo‘nalishlari hamda hudud imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ziyorat turizmi, muqaddas qadamjolar, tarixiy obidalar, turizm infratuzilmasi, madaniy meros.

Аннотация. В данной статье проанализирован потенциал паломнического туризма Сурхандарьинской области, а также расположенные в регионе священные места и исторические памятники. В частности, освещены религиозное и культурное значение таких объектов, как комплекс Хаким ат-Термизи и комплекс Султан Саodat. В статье также рассмотрены направления развития паломнического туризма и вопросы эффективного использования туристического потенциала региона.

Ключевые слова: паломнический туризм, священные места, исторические памятники, туристическая инфраструктура, культурное наследие.

Abstract. This article analyzes the potential of pilgrimage tourism in Surkhandarya region, sacred sites and historical monuments in the region. In particular, the religious and cultural